



ZAMONAVIY DAVRDA UY XO'JALIKLARI MOLIYASINI BOSHQARISH MASALALARI

Abdurazakova Nasiba Sultanovana

Toshkent amaliy fanlar universiteti Toshkent shahar

Chilonzor tumani Gavxar ko'chasi 1-uy

abdurazakova.nasibahon1979@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14801524>

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda samaradorligini oshirish yo'llarining nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: investitsion loyiha, tijorat bank, daromad, moliyalashtirish manbalari, samaradorlik, kapital qo'yilmalar, investitsion muhit, loyiha monitoring

Аннотация: В данной статье изучены теоретические и практические аспекты путей повышения эффективности финансирования инвестиционных проектов в коммерческих банках.

Ключевые слова: инвестиционный проект, коммерческий банк, доход, источники финансирования, эффективность, капитальные вложения, инвестиционная среда, мониторинг проекта.

Abstract: In this article, the theoretical and practical aspects of ways to improve the efficiency of financing investment projects in commercial banks are studied.

Keywords: investment project, commercial bank, income, financing sources, efficiency, capital investments, investment environment, project monitoring.

KIRISH

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy negizida mamlakatimizda xorijiy kapital oqimi va investitsiyalarni jalb qilishga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda, bir qancha chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amalda foydalanilib kelinmoqda. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, investitsiya faolligining o'sish sur'atlari investitsiya muhitiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Iqtisodiyotda investitsiya faoliyatining rivojlanishi, ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilishning kol'mi, yo'nalishlari va samaradorligi, bevosita investitsiya muhitiga bog'liqdir. Hozirgi kunda mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarini jadal rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan investitsiya loyihalarini samarali va o'z vaqtida amalga oshirish maqsadida xalqaro moliya institutlari va donor mamlakatlar mablag'larini faol jalb etish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur chora-tadbirlar doirasida «iqtisodiy jihatdan asoslantirilgan investitsiya loyihalarini ularning moliyalashtirish manbalari aniq belgilangan holda samarali amalga oshirilishini ta'minlaydigan, shuningdek, ularni amalga oshirish bo'yicha mablag'larning nooqilona sarflanishini istisno etadigan, mamlakatni rivojlantirish davlat dasturlarini shakllantirish va moliyalashtirishning sifat jihatdan yangi tartibi joriy etildi» [1]. Yaqin o'rta muddatli istiqbolda korxonalarni modernizatsiyalash bo'yicha kutilayotgan ehtiyojlar hamda O'zbekiston iqtisodiyotining moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, aytish mumkinki, yaqin yillarda bank tizimi jami kredit portfelida investitsion kreditlarning yanada o'sishini kutish mumkin. Bu esa, tijorat banklarining investitsion loyihalarni moliyalashda bank risklarini boshqarish zaruratini yuzaga keltiradi va dolzarbligini oshiradi. Alohida ta'kidlash o'rinliki, investitsion loyihalarni moliyalashtirish bankning yuqori riskli faoliyati hisoblanib, bu turdagi risklarni boshqarish murakkab va ko'p pog'onali jarayon hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, investitsion loyihalarni moliyalashtirish bilan shug'ullanuvchi tijorat banklari riskni boshqarish maqsadida risk-menejment jarayoniga ko'maklashuvchi o'ziga xos modellarni shakllantirishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Bank investitsiya faoliyatiga o'z mablag'lari bilan birga, tashqaridan moliyalashtirish manbalarini jalb etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishi kerak [2]. Odatda, har qanday investitsion tadbirkorlik muayyan maqsadga yo'naltirilgan, mukammal darajada yaratilgan investitsiya g'oyasiga asoslanadi. Mukammal darajada shakllantirilgan va asoslangan investitsiya g'oyasi investitsiya loyihasining qaror topishiga olib keladi. Investitsion faoliyatni moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini nazariy jihatlari qator iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, professor Mirkinning fikriga ko'ra, investitsiyalarni moliyalashtirishning real, istiqbolli shakli kompaniyalarning jamg'armalarini ikkilamchi bozordan aksiyadorlik kapitaliga



joylashtirishni ko'paytirish hisoblanadi, ammo investitsiyalarni moliyalashtirishning manba darajasi juda past [3].Taniqli iqtisodchi olimlardan Sharp ham investitsiya faoliyatini fond bozori orqali moliyalashtirish mexanizmiga alohida e'tibor qaratadi [4].Iqtisodchi olim D.G'ozibekovning fikricha investitsiya qarorlarini qabul qilishning muqobil variantlarini aniqlashda jahon amaliyotida qo'llaniladigan investitsiya loyihalari samaradorligi ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Bu ko'rsatkichlar sof diskontlangan daromad, daromadlilik indeksi, ichki daromadlilik me'yori, qoplash muddati asosida iqtisodiy, moliya budjet, ekologik ijtimoiy va boshqa samaradorlikni o'z ichiga oladi [5].Berens, Xavranekslarning fikricha, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda investitsion loyihalarning samaradorligini baholashga asoslangan, ularni o'zaro taqqoslay oladigan usullar keng qo'llaniladi Mazur va boshqalar o'z ilmiy asarlarida investitsiya loyihalari samaradorligini quyidagicha izohlaganlar: "Investitsiya loyihalarining samaradorligi - loyihaning uning ishtirokchilarini maqsadi va qiziqishlariga muvofiqligini ko'rsatib beruvchi kategoriya hisoblanadi" [7].Bu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borgan mamlakatimiz olimlari Mamatov va boshqalarning "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish" kitobida investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirishning iqtisodiy mohiyati, investitsiyalarni moliyalashtirish jarayonlarining asosiy bosqichlari, iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning roli bayon etilgan [8].Yuqorida nomlari keltirib o'tilgan iqtisodchi olimlar tomonidan investitsiya loyihalarni moliyalash samaradorligi yuzasidan bank faoliyatining ayrim jihatlari tadqiq etilib, bu boradagi mualliflik yondashuvlari ilgari surilgan. Biroq, investitsion loyihalarni moliyalash samaradorligini ta'minlashda yuzaga keluvchi baholash amaliyoti va unga ta'sir etuvchi omillar yaxlit tadqiqot ishi sifatida o'rganilmagan. Bu esa, mazkur tadqiqotning maqsadi va o'ziga xos jihatlari belgilab beradi.

Investitsion loyiha – korxona tomonidan qo'yilgan maqsadga erishish uchun unga moliya kapitalini samarali qo'yishni amalga oshirish maqsadida tashkil etilayotgan tashkiliy-iqtisodiy qarorlar tizimidir. Loyihalarning shakli va mazmuni turli xil bo'lishi mumkin – ya'ni, yangi korxonani qurishdan ko'chmas mulkni xarid qilishgacha. Hozirgi kunda xalqaro miqyosda shakllangan tendensiyalar O'zbekiston banklari uchun yangi, zamonaviy-innovatsion imkoniyatlar berishi barobarida muayyan risklarni yuzaga kelishiga ham olib keladi.Bankning investitsion moliyalash faoliyati ob'ekti – iqtisodiyotning real sektori korxonalaridagi ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash yoki modernizatsiyalash, ishlab chiqarishni kengaytirish yoki ishlab chiqarish xavfsizligini oshirish hamda qo'shimcha ishlab chiqarish quvvatlarini xarid qilish bilan bog'liq investitsion loyihalaridir. Quyidagilar investitsiya faoliyati sub'ektlari (investorlar va investitsiya faoliyati ishtirokchilari) bo'lishi mumkin:

– O'zbekiston Respublikasi fuqarolari (jismoniy shaxslar), O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar;

– davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari;

– chet el davlatlari, chet el davlatlarining ma'muriy yoki hududiy organlari,

xalqaro tashkilotlar hamda chet ellik yuridik shaxslar va fuqarolar, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar.

O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalarni muvaffaqiyatli jalb etish ma'lum darajada uch guruh omillarga bog'liq bo'ladi.

Birinchidan, investitsiya quvvatining mavjudligiga. Uni tabiiy, mehnat zahiralari, shuningdek, ishlab chiqarish, iste'mol, moliyaviy, innovatsiya, institutsional va infratuzilmaviy quvvatlar tashkil qiladi.

Ikkinchidan, mamlakatdagi mavjud investitsiya sharoitlari muhim ahamiyatga

egadir. Bularga: umumiqtisodiy, bozor, me'oriy-huquqiy, axborot bilan ta'minlanish, ekologik, ijtimoiy, madaniy va ijtimoiy-madaniy sharoitlar kiradi.

Uchinchidan, investitsiya tavakkalchiligi omillaridir. Ular xorijiy investorlarning investitsiya quvvati va investitsiya sharoitlarining qulay afzalliklaridan foydalanish bo'yicha vazifalariga qarama-qarshi turadi.Barcha guruhlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Misol uchun, yetarli darajada jalb qiluvchi bo'lmagan investitsiya sharoitlari, hatto, yuqori quvvatli investitsiya loyihalarini amalga oshirish imkoniyatlarini ham pasaytirib yuboradi.Investitsiyalar jalb etishning hozirgi holati va uning samaradorligini baholashda iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiyalarni oshirish hamda ishchi kuchi malakasini oshirishning zamonaviy usullaridan foydalanish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Jalb qilinadigan investitsiyalarni



maqsadli yo'naltirishga ta'sir ko'rsatadigan omillarni to'liq baholash uchun alohida hududning o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, joylashuvi, infratuzilma ob'ektlari, xususiyatlari hisobga olinishi lozim. Shu o'rinda, tijorat banklari tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashda loyihaning quyidagi sifat ko'rsatkichlariga, ya'ni diskontlash stavkasi, sarflanadigan mablag'larni qoplash muddati, qaytarib berishning diskontlashgan muddati, rentabellikning o'rtacha normasi, loyihadan keladigan sof daromad, daromadlar indeksi, rentabellikning ichki foyda normasi hamda modifikatsiyalashgan ichki foyda normasiga alohida e'tibor qaratilishi loyiha hayotiyeligini ta'minlashda muhim o'rin tutmoqda. Ya'ni, investitsion loyiha sifat ko'rsatkichlarining yuqori samaradorlikka ega bo'lishi ko'rib chiqilayotgan investitsion loyihaning sifatiligidan dalolat beradi. 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 202,0 trln. so'm o'zlashtirildi. Dollar ekvivalentida 20,1 mlrd. AQSH doll. o'zlashtirilgan bo'lib, 2021 yilga nisbatan 91,8 % ni tashkil etdi [9].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 iyundagi "Xalqaro moliya institutlari va donor mamlakatlar ishtirokidagi investitsiya loyihalarini boshqarish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3796-sonli qarori.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. // uza.uz. 16.01.2017
3. Миркин Я. М. Рынок ценных бумаг: учеб. пособие. М., 2002. –с. 56 -57.
4. Шарп У. и др. Инвестиции. Пер. с англ. – М. ИНФРА-М, 2001. – С. 9-10
5. G'ozibekov. D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: "Moliya" nashriyoti, 2003 yil.
6. Беренц В., Хавранек П.,. Руководство по оценке эффективности инвестиций, пер.с англ. А.П. Белых, М.: - Инфра-М, 1995. – С. 60-80.
7. Мазур И.И., Шапиро В.Д., Ольдерогге Н.Г. Управление проектами: Справочное пособие. – М.: Высшая школа. 2001. - 875 с.
8. Mamatov B.S., Xujamqulov D.Yu., Nurbekov O.Sh. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2014.
9. J.R.Zaynalob. "Investitsiya", – T.: Iqtisod-moliya, 2020.